



UDK: 81'25:004.8

Gulasal Y. ROFIYEVA,
PhD, JIDU, fransuz tili o'qituvchisi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: rofiyeva@uwed.uz, ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9919-8998>

Professor, f.f.d G.Kurbanova taqrizi asosida

DIPLOMATIC TRANSLATION IN THE ERA OF GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE: LINGUOCULTURAL ADEQUACY AND THE HUMAN FACTOR

Annotation

This article examines the role of generative artificial intelligence in ensuring linguocultural adequacy in diplomatic translation and highlights the significance of the human factor in the translation process. The study comparatively analyzes semantic accuracy, pragmatic equivalence, diplomatic register, cohesion, coherence, referential consistency, and evaluative expressions characteristic of diplomatic discourse. Comparative-descriptive, discourse, and linguopragmatic methods constitute the methodological framework of the research.

Key words: Generative artificial intelligence, diplomatic translation, linguocultural adequacy, human factor, translation studies, diplomatic discourse, pragmatic equivalence, cohesion, coherence, post-editing.

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЙ ПЕРЕВОД В ЭПОХУ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ АДЕКВАТНОСТЬ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ФАКТОР

Аннотация

В статье исследуются возможности генеративного искусственного интеллекта в обеспечении лингвокультурологической адекватности дипломатического перевода, а также раскрывается роль человеческого фактора в данном процессе. Проведён сравнительный анализ семантической точности, прагматической эквивалентности, дипломатического регистра, когезии, когерентности, референциальной связности и передачи оценочных единиц, характерных для дипломатического дискурса. Методологическую основу исследования составили сравнительно-описательный, дискурсивный и лингвопрагматический методы анализа.

Ключевые слова: Генеративный искусственный интеллект, дипломатический перевод, лингвокультурологическая адекватность, человеческий фактор, переводоведение, дипломатический дискурс, прагматическая эквивалентность, когезия, когерентность, постредактирование.

GENERATIV SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA DIPLOMATIK TARJIMA: LINGVOKULTUROLOGIK ADEKVATLIK VA INSON OMILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada generativ sun'iy intellekt vositalarining diplomatik tarjimada lingvokulturologik adekvatlikni ta'minlashdagi imkoniyatlari hamda inson omilining o'rni tadqiq etiladi. Tadqiqotda diplomatik diskursga xos bo'lgan semantik aniqlik, pragmatik ekvivalentlik, diplomatik ohang, koheziya, kogerentlik, referensial izchillik va baholovchi birliklarning saqlanish darajasi qiyosiy tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida qiyosiy-tavsifiy, diskursiv va lingvopragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Generativ sun'iy intellekt, diplomatik tarjima, lingvokulturologik adekvatlik, inson omili, tarjimashunoslik, diplomatik diskurs, pragmatik ekvivalentlik, koheziya, kogerentlik, post-tahrirlash.

Kirish. XXI asrning uchinchi o'n yilligida raqamli texnologiyalar va generativ sun'iy intellektning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyoti, ilm-fani hamda xalqaro kommunikatsiya tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar va tarjima amaliyotiga keng joriy etilishi ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlariga keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ushbu

yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash hamda O'zbekistonning sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Mazkur strategiya "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, sun'iy intellektni ilmiy-amaliy faoliyatga integratsiya qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi [1].

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi tarjima faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqdi. Katta til modellari (Large Language Models) asosida yaratilgan ChatGPT, Gemini, Claude, DeyepSeyek kabi tizimlar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi matnlarni turli tillarga tarjima qilish, tahrirlash hamda uslubiy jihatdan qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada sun'iy intellekt vositalari nafaqat kundalik kommunikatsiyada, balki xalqaro siyosat, diplomatiya, huquq va iqtisodiyot kabi yuqori aniqlikni talab qiladigan sohalarda ham faol qo'llanila boshladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi generativ sun'iy intellektidan foydalanish sharoitida diplomatik tarjimada lingvokulturologik adekvatlikni ta'minlashda inson omilining o'rni aniqlash hamda sun'iy intellekt va professional tarjimonning o'zaro hamkorligi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: generativ sun'iy intellektning diplomatik tarjima jarayonidagi imkoniyatlari va cheklolarini tahlil qilish; diplomatik diskursda lingvokulturologik adekvatlikni ta'minlovchi asosiy omillarni aniqlash; sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilgan tarjimalarni inson tarjimasi bilan qiyosiy tahlil qilish hamda diplomatik tarjimada inson omilining ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslab berish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Generativ sun'iy intellektning tarjima faoliyatiga kirib kelishi tarjimashunoslikda tarjima sifati, matniy yaxlitlik, madaniy-pragmatik moslik va inson tarjimonining kasbiy maqomini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalarining tarjimadagi samaradorligini faqat leksik-semantic yoki grammatik aniqlik orqali baholash yetarli emas. Ayniqsa, diplomatik diskurs kabi siyosiy pozitsiya, kommunikativ ehtiyotkorlik, milliy-madaniy kodlar va pragmatik ta'sir mujassamlashgan matnlarda tarjima sifati sentiment, referensial izchillik, diskurs markerlari hamda lingvokulturologik adekvatlikning bir butun tizimi sifatida o'rganilishi lozim.

Tarjima matnlaridagi koheziya xususiyatlarini inson, mashina va original matnlar kesimida o'rgangan Bystrova-McIntyre korpus tadqiqoti bu yo'nalishdagi muhim metodologik asoslardan biridir. Tadqiqotda rus tilidan ingliz tiliga inson va mashina tomonidan tarjima qilingan hamda bevosita ingliz tilida yaratilgan matnlar qiyoslangan. Muallif referensiya, bog'lovchilar, leksik takror, nominalizatsiya, gap uzunligi va leksik zichlik singari belgilar tarjima turiga qarab farqlanishini ko'rsatadi. Ushbu ishning muhim jihati mashina tarjimasini faqat alohida gaplar darajasida emas, balki butun matnning global tashkiloti nuqtai nazaridan baholashidir. Shu bilan birga, avtomatik korpus tahlili katta hajmdagi ma'lumotni qamrab olsa-da, madaniy va situativ referensiyalarni to'liq aniqlay olmasligi qayd etiladi [2].

Mazkur qarash Martínez García, España-Bonet va Márquezning hujjat darajasidagi mashina tarjimasini qayta tarjima jarayoni sifatida talqin qilgan tadqiqotida davom ettiriladi. Mualliflar gapma-gap tarjima qilish matn bo'ylab terminologik izchillik, referensial bog'lanish va grammatik muvofiqlikni kafolatlamasligini ko'rsatadilar. Ularning yondashuvida dastlabki mashina tarjimasini hujjat kontekstini hisobga olgan holda qayta ishlash kohezivlik va leksik izchillikni yaxshilaydi. Ayniqsa, avtomatik metrikalar bilan ekspert baholashi o'rtasidagi tafovut inson tahlilining zarurligini ko'rsatadi: formal ko'rsatkichlarda sezilmaydigan diskursiv yaxshilanishlar mutaxassis tomonidan aniq baholanishi mumkin. Ushbu xulosa diplomatik matnlarni generativ AI yordamida tarjima qilishda ham alohida gaplarning to'g'riligidan ko'ra hujjatning umumiy kommunikativ pozitsiyasini saqlash muhimligini anglatadi [3].

So'nggi tadqiqotlarda inson va mashina tarjimasining koheziya hamda kogerentlik xususiyatlari yanada murakkab, ko'p o'lchovli tizim sifatida o'rganilmoqda. Li va Gao inson tarjimasi, DeyepL, Google Translate va original ingliz matnlarini to'rtta registr bo'yicha qiyoslab, matn registrining ta'siri tarjima turining ta'siridan kuchliroq ekanini aniqlaydilar. Ular akademik matnlarda referensial koheziya, semantik o'xshashlik va mantiqiy bog'lanish yuqoriroq, badiiy matnlarda esa anaforik zanjirlar faolroq ekanini ko'rsatadilar. Shuningdek, inson va mashina tarjimalarida eksplisitsiya tendensiyasi mavjud bo'lsa-da, bu xususiyat barcha registrlar

va ko'rsatkichlarda bir xil namoyon bo'lmaydi. Demak, eksplisitsiyani mutlaq tarjima universalisasi sifatida emas, registr, kommunikativ vazifa va texnologiya bilan o'zaro ta'sirlashuvchi hodisa sifatida baholash lozim [4].

Yao va Fan tomonidan ChatGPT, neyron mashina tarjimasi va inson tarjimasi turli janrlarda qiyoslangan tadqiqot generativ AI tarjimasining klassik mashina tarjimasidan farqli xususiyatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Entropiya asosidagi tahlil natijalari ChatGPT tarjimalari ayrim hollarda leksik xilma-xillikni nisbatan yaxshi saqlashi, biroq sintaktik tuzilmalarni soddalashtirishga moyilligini ko'rsatgan. Eng muhimi, soddalashtirish darajasi tarjima vositasigagina emas, matn janriga ham bog'liq. Bu natija generativ AI tarjimasini inson va an'anaviy NMT o'rtasidagi oddiy oraliq shakl emas, o'ziga xos tarjima rejimi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Diplomatik diskursda esa bunday sintaktik soddalashtirish ba'zan ravonlikni oshirishi, boshqa holatlarda esa siyosiy ehtiyotkorlik, modal ma'no yoki argumentativ murakkablikni kamaytirishi mumkin [5].

AI tarjimasining lingvokulturologik va emotsional imkoniyatlari Li tomonidan audiovizual tarjima misolida o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, AI tarjima tezligi va ko'p tilli kontent tarqatish imkoniyatini sezilarli oshiradi, biroq idiomatik birliklar, tarixiy ishoralar, ramziy ma'nolar, personaj identifikatsiyasi va emotsional ohangni saqlashda muntazam qiyinchiliklarga duch keladi. Inson muharrirlari tomonidan amalga oshirilgan tanlab post-tahrirlash madaniy aniqlik va auditoriyaning emotsional qabulini yaxshilagan. Shu sababli muallif AI ishlab chiqargan barcha segmentlarni bir xil darajada tekshirishdan ko'ra, madaniy va emotsional jihatdan zich qismlarni inson ekspertizasiga ustuvor ravishda yo'naltirishni taklif qiladi. Audiovizual va diplomatik diskurs funksional jihatdan farqlansa-da, har ikkala sohada ham ramziy ma'no, auditoriya reaksiyasi va kontekstual interpretatsiya muhim bo'lgani uchun ushbu yondashuv diplomatik tarjimaga moslashtirilishi mumkin [6].

AI vositalari bilan ishlash jarayonida inson omilining o'rni tarjimon kompetensiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham asoslanadi. Mekheimer tarjima kompetensiyasini lingvistik bilim, maxsus terminologiya, idiomatik birliklarni anglash, madaniyatlararo kompetensiya va texnologik savodxonlikning integrativ tizimi sifatida ko'radi. Tadqiqotda AI va CAT vositalaridan uzviy, vazifaga asoslangan foydalanish zarurligi qayd etilgan bo'lsa-da, ularning literalizm, pragmatik noziklikning yo'qolishi va madaniy nomuvofiqlik kabi cheklolarini tanqidiy baholashga alohida urg'u beriladi. Bu holat generativ AI davrida inson tarjimonining vazifasi qisqarayotganini emas, aksincha, uning faoliyati dastlabki tarjimoni yaratishdan sifat nazorati, madaniy vositachilik, riskni boshqarish va yakuniy qaror qabul qilish tomon o'zgarayotganini ko'rsatadi [7].

Tahlil qilingan tadqiqotlarni qiyoslash natijasida bir nechta umumiy tendensiya aniqlanadi. Birinchidan, inson va AI tarjimalari o'rtasidagi farq faqat grammatik to'g'rilik yoki leksik aniqlik bilan chegaralanmaydi; u referensial bog'lanish, diskurs markerlari, sentiment, registr, yashirin pragmatik munosabatlar va madaniy kontekstda namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, avtomatik baholash vositalari katta hajmdagi ma'lumotni izchil tahlil qilsa-da, kogerentlik, emotsional rezonans va madaniy adekvatlikni to'liq qamrab olmaydi. Uchinchidan, AI tarjimasi tezlik, terminologik qidiruv va dastlabki matn yaratishda samarali bo'lsa, inson tarjimoni kommunikativ xavfni baholash, strategik noaniqlikni saqlash, lingvokulturologik birliklarni interpretatsiya qilish va diplomatik ohangni muvofiqlashtirishda hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda lingvokulturologik adekvatlik faqat madaniy realiyalarni to'g'ri tarjima qilish sifatida emas, balki semantik aniqlik, pragmatik ekvivalentlik, diplomatik ohang, referensial va leksik izchillik, sentimentning saqlanishi hamda registr meyorlariga muvofiqlikni birlashtiruvchi kompleks kategoriya sifatida talqin etiladi. Inson omili esa AI tarjimasini shunchaki tahrirlash bilan cheklanmay, kommunikativ xavfni baholash, madaniy-pragmatik ma'noni interpretatsiya qilish va yakuniy diplomatik qarorni qabul qilishni qamrab oladi. Shu asosda generativ AI va professional tarjimon qarama-qarshi subyektlar emas, balki vazifalari chegaralangan hamkorlar sifatida ko'riladi: AI tezkor dastlabki tarjima va lingvistik variantlarni yaratadi, inson tarjimoni esa lingvokulturologik ekspertiza, pragmatik nazorat va diplomatik mas'uliyatni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot generativ sun'iy intellekt vositalari yordamida amalga oshirilgan diplomatik tarjimalarda lingvokulturologik adekvatlikning saqlanish darajasini hamda ushbu jarayonda inson omilining rolini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda qiyosiy-tavsifiy, lingvopragmatik, diskursiv va tarjimashunoslik tahlili usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot materiali sifatida xalqaro tashkilotlar va davlatlarning rasmiy axborot manbalarida e'lon qilingan

diplomatik mazmundagi qisqa matn parchalari tanlandi. Ular rasmiy bayonotlar, siyosiy nutqlar, xalqaro hamkorlikka oid murojaatlar va diplomatik munosabatlarni ifodalovchi kommunikativ birliklardan tashkil topdi. Matnlarni tanlashda diplomatik diskursga xos bo'lgan baholovchi leksika, siyosiy ehtiyotkorlik, evfemistik ifodalar, diskurs markerlari va milliy-madaniy mazmunning mavjudligiga e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Generativ sun'iy intellektning diplomatik tarjimadagi imkoniyatlari semantik aniqlik, pragmatik ekvivalentlik, diplomatik ohang va lingvokulturologik moslik mezonlari asosida tahlil qilindi. Tahlil uchun xalqaro tashkilotlar hamda tashqi siyosat idoralarining rasmiy bayonotlarida faol qo'llanadigan diplomatik formulalar tanlandi. Quyidagi misollar generativ AI tarjimasini tashqi jihatdan ravon bo'lishiga qaramay, ayrim holatlarda baholash darajasi, kommunikativ ehtiyotkorlik va pragmatik ta'sirni o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatadi:

1. Baholovchi ma'noning saqlanishi
2. Diplomatik chaqiriq va majburiyat darajasi
3. Diplomatik xavotirning intensivligi
4. Konstruktiv diplomatik pozitsiyani ifodalash

Biroq aniqlangan kamchiliklar uch asosiy guruhga birlashadi:

Xato turi	Asosiy ko'rinishi	Ehtimoliy oqibati
Leksik-semantik	sohaviy kollokatsiyaning umumiy so'z bilan berilishi	terminologik aniqlikning pasayishi
Pragmatik-diskursiv	baholash, chaqiriq yoki xavotir darajasining o'zgarishi	diplomatik pozitsiyaning kuchayishi yoki yumshashi
Lingvokulturologik-uslubiy	maqsad tilga xos rasmiy formulalarning hisobga olinmasligi	matnning notabiiy yoki sohaviy me'yorlarga nomuvofiq chiqishi

Qiyosiy tahlil generativ AI tarjimalarida qo'pol semantik xatolardan ko'ra, ma'no intensivligining siljishi, diplomatik kollokatsiyaning buzilishi va pragmatik funksiyaning qisman zaiflashishi ko'proq uchrashini ko'rsatdi. Mazkur natija diplomatik tarjima sifatini faqat grammatik to'g'rilik bilan baholash mumkin emasligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari generativ sun'iy intellekt vositalari diplomatik tarjima jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi va dastlabki tarjima variantini qisqa vaqt ichida tayyorlash imkonini berishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, diplomatik diskursning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlari generativ AI imkoniyatlarining ma'lum chegaralarga ega ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Generativ sun'iy intellekt diplomatik matnlarning semantik mazmunini yuqori aniqlikda uzata oladi, biroq diplomatik diskurs uchun xos bo'lgan baholovchi birliklar, pragmatik munosabatlar va lingvokulturologik ma'nolarni to'liq saqlashda inson tarjimoniga nisbatan cheklangan imkoniyatlarga ega.

Lingvokulturologik adekvatlik diplomatik tarjima sifatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. U faqat madaniy realiyalarni tarjima qilish bilan emas, balki diplomatik ohang, siyosiy neytrallik, milliy-madaniy kodlar, pragmatik ekvivalentlik, sentiment va diskurs yaxlitligini saqlash bilan belgilanadi.

Generativ AI tarjimalarida eng ko'p uchraydigan muammolar diplomatik formulalarning baholash darajasi, terminologik izchillik, diskurs markerlari hamda referensial bog'lanishning qisman buzilishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

diplomatik tarjima amaliyotida generativ sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda lingvokulturologik va pragmatik ekspertizani majburiy bosqich sifatida joriy etish;

tarjimonlarni tayyorlash dasturlariga generativ AI bilan ishlash, post-tahrirlash hamda diplomatik diskursni lingvokulturologik tahlil qilish bo'yicha maxsus modul larni kiritish;

o'zbek tilida diplomatik matnlar korpusini yaratish va generativ sun'iy intellekt tizimlarini milliy diplomatik uslub hamda terminologiya asosida takomillashtirish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.
2. Bystrova-McIntyre T. Cohesion in Translation: A Corpus Study of Human-Translated, Machine-Translated, and Non-Translated Texts (Russian into English): PhD Dissertation. – Kent State University, 2012. – 444 p.
3. Martínez García E., España-Bonet C., Márquez L. Document-Level Machine Translation as a Re-translation Process // Procesamiento del Lenguaje Natural. – 2014. – No. 53. – P. 103–110.
4. Li J., Gao Y. Variability of cohesion and coherence in Chinese-to-English translation: Measuring the effect of translation variety and register divergence // Humanities & Social Sciences Communications. – 2025. – Vol. 12. – Article 1526.
5. Yao G., Fan L. An entropy-based study of simplification in ChatGPT translations compared to neural machine translation and human translation across genres // PLOS ONE. – 2025. – Vol. 20.
6. Li N. Artificial intelligence-enhanced audiovisual translation for global dissemination of Chinese film and television // Humanities & Social Sciences Communications. – 2025. – Vol. 12.
7. United Nations. Official Documents. – <https://www.un.org>
8. European Union. European Council. Official Statements. – <https://www.consilium.europa.eu>
9. Ministère de l'Europe et des Affaires étrangères (France). Official Statements. – <https://www.diplomatie.gouv.fr>